

**Maxsulot sotish va xarid qilish  
№ 4/01 sonli SH A R T N O M A.**

"19" Yanvar 2022 yil

Quva tuman.

Ikki tomonlama ho'jalik munosabatlarini ifodalovchi mazkur shartnoma Nizom asosida ish yurituvchi "Baraka Fayz Usmon ota" MChJ keyingi o'rinlarda "Sotuvchi" deb ataladi) nomidan rahbar I. Ismonaliev birinchi tomon va ikkinchi tomon - Uzbekiston Respublikasi Konunchiligi hamda o'z Nizomiga asosan faoliyat yurituvchi Viloyat "Onalar va Bolalar" reabilitatsiya shifonashi nomidan rahbari A. Teshaboev (kelgusida "Xaridor" deb ataladi) o'rtalarida quyidagi maqsadlarda tuzildi.

**1. Shartnoma predmeti.**

1.1. "Sotuvchi" "Xaridor" ga quyidagi maxsulotlarni etkazib beradi:

**Oziq ovqat va qishloq xo'jalik maxsulotlari**

1.2. Mazkur shartnomaning umumiy qiymati **2 650 000 (O'n besh million sakkiz yuz ming so'm)** (raqam va so'z bilan tuliq yoziladi) sumni tashkil qiladi.

1.3. Maxsulotlar quyidagi assortimentda etkazib beriladi:

Maxsulot nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Summasi
Tuxum	dona	1000	950	950 000
Olma	kg	200	8500	1 700 000
<b>JAMI</b>				<b>2 650 000</b>

**2. Yetkazib berish va hisob-kitoblarni shartlari**

2.1. Maxsulot uchun to'lov pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

2.2. Buyurtmachi shartnoma umumiy summasining 30% ya'ni 795 000 so'mni avans tariqasida shartnoma to'liq kuchga kirgan kundan boshlab 20 bank ish kuni mobaynida, qolgan ya'ni 1 855 000 so'mni mahsulot etkazib beruvchi mahsulotni etkazib bergan kundan boshlab 20 bank kuni davomida yetkazib beruvchining bank hisob raqamiga o'tkazib beradi.

2.3. Maxsulotlar uchun narx o'zaro kelishilgan holda belgilanadi.

Bunda Uzbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan belgilangan narxlar asos qilib olinadi.

2.4. Agar davlat nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirish va taftish ishlar natijasida yetkazib berilgan maxsulotlariga belgilangan narxlar yuqori deb topilsa, ushbu farq "Sotuvchi" zimmasidan qoplanadi.

2.5. Shartnoma summasidan ortiq maxsulot yetkazib berilganda ("Buyurtmachi" ogohsiz bajarilganda) hisob-kitob "Buyurtmachi" tomonidan amalga oshirilmaydi.

**3. Maxsulot yetkazib berish**

3.1. Maxsulot yetkazib beruvchi maxsulotni xisob raqamiga avans mablag'i kelib tushgan kundan 5 bank ish kunida yetkazib beradi.

3.2. "Sotuvchi" shartnomada belgilangan maxsulotlarni "Haridor" talabiga muvofiq muassasalarga, sifatli hamda but holda yetkazib beradi va transport harajatlarini o'z zimmasiga oladi.

3.3 Yetkazib berilgan maxsulot uchun ma'sul shaxs tomonidan xisob varaq faktura qabul qilganligi to'g'risida imzo qo'yib olgan vaqtdan boshlab BYURTMACHI mulkiga aylanadi.

**4. Maxsulotni topshirish va qabul qilish.**

4.1 Buyurtmachi vakolatli shaxs qabul qilib olish jarayonida maxsulotning ishga yaroqligini, sifatini, miqdori jixatdan shartnomaga mos kelishini tekshirib olish lozim. Maxsulot to'liq qabul qilib olingandan so'ng maxsulotni saqlash javobgarligi buyurtmachi vakolatli shaxs zimmasiga o'tadi.

**5. Tomonlarning xuquqi va majburiyati**

5.1. "Sotuvchi" "Xaridor" tomonidan yuborilgan vakil, muassasa raxbari va bosh hisobchi tomonidan imzolangan, hamda yumaloq muxr bosilgan ishonch qog'ozi ko'rsatgandan so'ng maxsulot beradi.

5.2. "Sotuvchi" maxsulotni sifatini tasdiqlovchi xujjat (muvofiqlik sertifikati va sanitariya-gigiyena sertifikati, xulosasi va hokozalar), hamda mahsulotdan namuna taqdim etadi va aynan shu namunadagi maxsulotlarni yetkazib berishga kafolat beradi.

5.3. "Sotuvchi" xujjatlar to'g'ri rasmiylashtirilishini o'z zimmasiga oladi, hamda maxsulotlarni muassasalarga yetkazib beradi.

5.4. "Xaridor" shartnomada ko'rsatilgan maxsulotni sifati talabga javob bergan xolatdagina uni qabul qilib oladi.

5.5. "Xaridor" qabul qilib olgan maxsulotni shartnoma talablariga muvofiqligini aniqlagan holda, "Sotuvchi" ga yozma dalolatnoma (AKT) yuboradi, hamda sifatsiz deb topilgan maxsulotni "Sotuvchi" ga qaytarib beradi.

5.6. "Sotuvchi" "Xaridor" ga uning ishonch qog'ozida qaid qilingan maxsulotlar beradi. Agar "Sotuvchi" tomonidan "Xaridor" ning ishonch qogozida ko'rsatilmagan maxsulotlarni, yoki maxsulotlarni ishonch qog'ozida belgilangan miqdoridan ortiq bergan hollarda, bu maxsulotlar uchun "Xaridor" tomonidan xaq to'lanmaydi.

5.7. "Sotuvchi" tomonidan "Xaridor" ga sifatsiz yoki sertifikatsiz maxsulotlar yetkazib berilsa, bu maxsulotlar "Sotuvchi" ga qaytarib beriladi yoki bu maxsulotlar uchun xaq to'lanmaydi.



5.8. "Sotuvchi" yetkazib bergan maxsulotlarini xisob-varaqlarda to'liq va aniq nomini, maxsulot navini, kategoriyasini va boshqa ko'rsatkichlarini ko'rsatishi shart. Shuningdek, xisob-varaqlarni belgilangan tartibda raqamlab, to'liq rasmiylashtirishi shart. To'liq rasmiylashtirilmagan xamda maxsulotning sifati, navi va kategoriyalari ko'rsatilmagan xisob-varaqlar bo'yicha to'lov amalga oshirilmaydi.

#### 6. Taraflarning javobgarligi.

6.1. Tomonlar tarafidan shartnoma shartlari buzilgan hollarda, javobgarlik O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolik Kodeksi" ga, "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining Sharnomaviy-xuquqiy bazasi to'q'risidagi xamda O'zbekiston Respublikasining boshqa amaldagi qonun xujjatlariga, shuningdek ushbu shartnomaga muvofiq belgilanadi.

6.2. Agar "Sotuvchi" tomonidan "Xaridor" ga sifatsiz, yoki saqlash muddatlari o'tib ketgan maxsulotlarni yetkazib kelgan holda "Xaridor" "Sotuvchi" dan bunday maxsulotlarning umumiy qiymatidan 50%, lekin shartnomaning 1.2 bandida ko'rsatib o'tilgan summasing 50% oshmagan holda jarima qo'llab, qonunchilikda belgilangan tartibda undirib olinadi.

6.3. Agar "Sotuvchi" tomonidan "Xaridor" ga maxsulotlar belgilangan muddatlarida yetkazib kelinmasa, kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0.5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda peyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan maxsulotlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi kerak.

Agar majburiyatlarning bajarilmasligi fors-major holatlarining oqibati hisoblansa, sotuvchi penya to'lash majburiyatidan xalos qilinadi.

6.4. Jarimalar to'lanishi "Sotuvchi"ni shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

6.5. Yetkazib berilgan maxsulotning qiymati shartnomada kelishilgan muddatlarda, o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda "Xaridor" "Sotuvchi" ga har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasing 0.4 foizi miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lov summasing 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

Agar majburiyatlarning bajarilmasligi fors-major holatlarining oqibati hisoblansa, "Xaridor" penya to'lash majburiyatidan halos qilinadi.

#### 7. Nizolarni hal etish tartibi.

7.1. Shartnoma yuzasidan kelib chiqqan nizolar bo'yicha tomonlar kelishish choralarini ko'radilar.

7.2. Tomonlar kelisha olmagan taqdirda O'zbekiston Respublika qonunlariga asosan Xujalik sudlari orqali hal qilinadi.

#### 8. Fors-major holatlari.

8.1. Shartnoma tuzilgandan so'ng bartaraf etilishi tomonlarning tasiri va istaklariga bog'liq bo'lmagan vaqtincha yoki uzoq vaqt shartnomani zarur darajada amalga oshirishda halaqit beradigan vaziyatlar sodir bo'lganda, ya'ni tabii ofatlar, noqulay ob-havo sharoiti, hukumat tadbirlari, xokimiyat organlarining qarorlari, xarbiy nizolar, ichki tartibsizliklar va boshqa hollarda, yuqorida aytib o'tilgan holatlar mavjudligi tufayli tomonlar tarafidan shartnoma majburiyatlari buzilgan deb hisoblanmaydi va sharnoma majburiyatlarini bajarish muddatlari ushbu holatlar davom etish vaqtiga suriladi.

8.2. Shartnoma majburiyatlarini bajarish imkoniyatiga ega bo'lmagan tomon darhol ikkinchi tomonni yuqoridagi holatlarning yuzaga kelganligi, shuningdek bartaraf etilganligi to'q'risida habardor qilishi kerak.

8.3. Bartaraf etilishi mumkin bo'lmagan vaziyatlar sodir bo'lgani yoki ularni bartaraf etilgani haqida o'z vaqtida, 15 kundan ko'p bo'lmagan muddatda habar bermagan tomon keyinchalik shartnoma shartlari bajarilmagan taqdirda, bu vaziyatlarni sabab qilib ko'rsata olmaydi.

#### 9. Shartnoma amal qilish muddati

9.1. Shartnoma ikkala tomonlar imzolanganidan so'ng kuchga kiradi.

9.2. Shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil "31" yanvargacha.

9.3. Shartnoma tomonlar kelishuviga asosan, "Sotuvchi" tomonidan yetkazib berilgan maxsulot "Xaridor" tomonidan sifatsiz deb topilganda va "Sotuvchi" tomonidan mazkur shartnomaning 4.1 bandi bajarilmaganda shartnoma "Xaridor" tomonidan bekor qilingan to'grisida "Xaridor" "Sotuvchi" ga yozma ravishda, asoslarni keltirgan holda hat bilan ma'lum qiladi.

#### 10. Qo'shimcha shartlar

10.1. Shartnoma ikki nushada tuzilib, xar bir nushasi teng juridik kuchga ega bo'lib tomonlarda bir nushadan saqlanadi.

10.2. Shartnomaga barcha o'zgartirishlar ikkala tomonlama kelishilgan va shartnomaga qo'shimcha bitim imzolangan holda qonuniy deb hisoblanadi.

10.3. Shartnomaning q'aznachilik bo'limi ro'yhatga olgandan so'ng to'lik kuchga ega deb hisoblanadi.

#### 11. Tomonlar huquqiy manzili va bank rekvizitlari

##### «S O T U V C H I»

"Baraka Fayz Usmon ota"

Ma'suliyati cheklangan jamiyati

Quva tuman Oq ota qishlog'i

X/r: 2020 8000 905 189 428 001

Agrobank Quva filiali

MFO: 00529 INN: 307135450

Raxbar: 

I. Ismonaliev.

Huquqshunost: 

##### «X A R I D O R»

Viloyat "Onalar va bolalar"  
reabilitasiya shifohonasi

Quva shahar A. Yassaviy № 98

ShXR- 100021860302187073101054001

INN 203590859

Moliya Vazirligi G'znachiligi

X/r - 23402000300100001010

Markaziy bank XKKM Toshkent sh

MFO: 00014 INN - 201122919

Raxbar:  A. Teshaboev.

